Hozirgi kunda rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini o'zliksiz va amaliy jihatdan rivojlantirish ularni davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida tajribali mentor ayollarga biriktirish (Leadership mentoring systems) ularning boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga xizmat ko'rsatadi. Bunda rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatida faoliyat yuritayotgan tajribali ayollarga biriktirish (leadership mentoring systems) va kouching texnologiyalari (coaching technologies)dan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, rahbar ayollar uchun maxsus raqamli o'qitish platformalari (digital learning platforms)ni ishlab chiqish va barcha sohalar kesimida boshqaruv kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirishga qaratilgan maxsus modullarni ishlab chiqish zarur. Institusional yondashuvga ko'ra mazkur mexanizmlar gender tenglikni ta'minlaydi, lekin mazkur yondashuvning samaradorligi modullarning konteksti va rahbar ayollarning o'qitishni tashkil etishga bog'liq.

Mazkur yondashuvlar asosida O'zbekistonda tashkil etilgan "Rahbar ayollar maktabi" muhim mexanizm hisoblanadi. "O'zbekistonda 2023-2025 yillar davomida "Rahbar ayollar maktabi"da o'qitilgan 150 nafar nomzodning 55 nafari yoki 37 foizi turli rahbarlik lavozimlariga tayinlandi" [9]. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni tizimlashtirish maqsadida qisqa muddatli malaka oshirish kurslarni hududlarda onlayn va masofaviy tashkil etishdan oldin, o'quv seminarida o'qishi rejalashtirilayotgan har bir rahbar ayolning boshqaruv salohiyatini kompleks baholash hamda baholash natijalari asosida ularga tanlov modullari asosida maxsus o'quvlarni tashkil etish, yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Davlat organlari va idoralarida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini (strategik fikrlash, qaror qabul qilish, emosional intellekt va hamkorlik) rivojlantirishning institusional mexanizmlarini takomillashtirishda mentorlik dasturlarini joriy etish, ayollarga mo'ljallangan rahbarlik treninglarini o'tkazish, ish-hayot balansini ta'minlovchi gender-neytral siyosatlarni (moslashuvchan grafik) yaratish, liderlik salohiyatini aniqlash tizimlarini kuchaytirish zarur.

McKinsey & Company va Amerika Psixologiya Assosiasiyasi (American Psychological Association, APA) tadqiqotlariga ko'ra, gender xilma-xilligi yuqori bo'lgan tashkilotlar moliyaviy samaradorlikni o'rtacha 9% ga oshiradi, ayol rahbarlar esa hamkorlikni kuchaytiradi, empatiyani oshiradi va umumiy ish unumdorligini yaxshilaydi [10].

O'zbekistonda ham mazkur masalada sosiologik tadqiqotlar olib borish natijasida rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga to'siq bo'ladigan stereotiplarni aniqlash, ayollarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish uchun tashkil etilgan o'zoq muddatli o'quvlarga ishtirokni cheklash bilan bog'liq hududiy qadriyatlarni mavjudligi ayollarni davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini cheklaydi. 2018–2023 yillar davomida ichki ishlar organlari xodimlari va sudyalor orasida ayollar ulushini 3-rasmdagi dinamikadan kurish mumkin, sudyalor korpusdagi ayollar ulushi nisbatan barqaror va sekin o'sish tendensiyasini namoyish etadi. 2018 yildagi 11,9% dan 2023 yilga kelib 14% ga etgan. Bu o'rtacha yillik o'sish taxminan 0,35–0,4 foiz punktini tashkil etadi. Ichki ishlar xodimlari orasida ayollar ulushi esa ancha murakkab va beqaror dinamikaga ega. 2018 yilda 8,7% bo'lgan ko'rsatkich 2019 yilda keskin pasayib, 3,2% ga tushib qolgan (bu eng past nuqta). Keyin 2020 yilda keskin ko'tarilib 11% ga etgan, ammo so'ngi uch yil davomida yana pasayib, 2023 yilda 10,1% da barqarorlashgan.



3-rasm. Ichki ishlar xodimlari va sudyalari sonidan ayollar ulushi (%) [11].

Har ikki sohada ham ayollar ulushi 14% dan oshmayapti, bu esa kuch ishlatish va huquqni muhofaza qilish tizimida gender tengligi masalasi hali ham o‘tkir ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha kuchli institusional mexanizmlarni (mentorlik dasturlari, gender-neytral kadr siyosati, maxsus treninglar va kvotalar) joriy etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dosenti X.Yu.Xalikulova “Rahbarlik va genderni qayta belgilash: Zamonaviy O‘zbekistonda “Ayol rahbar” va “Zamonaviy ayol” tushunchalari” nomli maqolasida Xorner, Zenger va Folkman tadqiqotlariga murojaat qilib, ayollarning rahbarlik salohiyatini yuqori ekanini, ular erkaklardan ko‘ra ko‘plab kompetensiyalarda (munosabatlar o‘rnatish, motivasiya, natijaga yo‘naltirish) ustunligini haqida fikr yuritadi [12, – B. 83-85]. O‘zbekistonda ayol rahbarlik an’anaviy va zamonaviy, erkaklarga xos va ayollarga xos fazilatlarining gibridd modelini ifodalaydi, bu esa samaradorlik va inklyuzivlikni ta’minlab, milliy islohotlarga muhim hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvi sohasiga jalb etish bo‘yicha 2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, unda davlat darajasida ayollarning siyosiy, davlat boshqaruvi va sud tizimidagi ishtirokini tizimli oshirishni maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan (2-jadval).

2-jadval

2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari [13].

T/r	Ko‘rsatgichlar nomi	Yillar kesimida					Mas’ul ijrochilar
		Birlamchi ko‘rsatkich	Oraliqdagi ko‘rsatkich			Maqsadli ko‘rsatkich	
			2021	2022	2027		
1.	Siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning ulushi (foizda)	44	46	49	50	50	Siyosiy partiyalarning

							markaziy kengashlari
2.	Siyosiy partiyalarning rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlarning ulushi (foizda)	30	35	41	46	50	Siyosiy partiyalarning markaziy kengashlari
3.	Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi (sonda)	5	7	10	13	15	Vazirlar Mahkamasi
4.	Mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida rahbarlik (hokimlar) lavozimidagi xotin-qizlar ulushi (sonda)	6	7	10	15	20	
5.	Boshqaruv lavozimlarida ishlovchi xotin-qizlar ulushi (foizda)	26	27	28	29	30	Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Davlat statistika qo'mitasi
6.	Sudyalar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	12	15	20	24	30	Sudyalar oliy kengashi
7.	Yetakchi xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar soni	0	1	1	2	3	Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
8.	Davlat boshqaruv akademiyasida xotin-qizlarning rahbarlik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlar asosida o'qishni yakunlagan xotin-qizlarning ulushi (foizda)	5	7	9	12	15	Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi
9.	O'zbekistonning chet mamlakatlaridagi elchilari orasida xotin-qizlarning ulushi (sonda)	1	1	2	3	4	Tashqi ishlar vazirligi

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlarida siyosiy sohada xotin-qizlarning ulushini oshirish orqali ularni siyosiy qaror qabul qilish jarayonlariga faol jalb etish belgilangan. Bu rahbar ayollarning boshqaruv

kompetensiyalarini rivojlantirishning institusional mexanizmlarini takomillashtirish zarurligining rasmiy va strategik asosi hisoblanadi.

2030-yilga qadar Davlat boshqaruvida vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda ayollar sonini 5 tadan 15 taga, mahalliy hokimlar orasida 6 tadan 20 taga, boshqaruv lavozimlaridagi umumiy ulushni 26% dan 30% ga oshirish rejalashtirilgan.

Sud tizimida sudyalar orasida ayollar ulushini 12% dan 30% ga etkazish maqsadi qo'yilgan. Bu 3-rasmda ko'rsatilgan 2018–2023 yillardagi 11,9–14% ko'rsatkich bilan solishtirilganda jiddiy institusional sa'y-harakatlarni talab etadi.

Ta'lim va malaka oshirish yo'nalishida etakchi xotin-qizlarni tayyorlash dasturlari sonini 3 taga etkazish va Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasida rahbarlik ko'nikmalarini oshirgan ayollar ulushini 15% gacha ko'tarish ko'zda tutilmoqda. Bu rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim institusional mexanizmi hisoblanadi.

2-jadvaldagi raqamlardan shuni xulosa qilish mumkinki O'zbekistonda amalga oshirilayotgan xotin-qizlarni boshqaruv faoliyatiga jalb etish faqat deklarativ emas, balki aniq raqamli maqsadlar orqali amalga oshirishni mo'ljallamoqda.

Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishni sosiologik tahlil shuni ko'rsatadiki, gender stereotiplari, ijtimoiy bosim va oilaviy yuklamalar ayollarning rahbarlik lavozimlariga intilishi, o'z ustida ishlab boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirib borishga asosiy to'siq hisoblanadi. Shuningdek, rahbar ayollarning malakasini oshirish va professional o'sish imkoniyatlari aniqlash viloyatlar va tumanlar kesimida o'rganilmagan. Mavjud treninglar tizimli tashkil etilmagan. Ilg'or xorij tajribasi sifatida har bir rahbar ayolning shaxsiy rivojlanish dasturi (Individual Development Plan (IDP), raqamli liderlik platformalari mentorlik tizimi, hududlar kesmida rahbar ayollarning zaxirasini yaratish, ularni doimiy ravishda assessment markazlarida baholab borish, ayollarning psixologik barqarorligini oshirishga qaratilgan maxsus trening dasturlarini joriy etish, ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra 2025 yil boshiga kelib, 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlarning o'rtacha 65-70% ga bajarilganini kurish mumkin (3-jadval). Siyosiy va ta'lim yo'nalishlarida yaxshi natijalar bor, lekin haqiqiy qaror qabul qilish hokimiyati (hokimlar, vazirlar, sudyalar, elchilar) da ayollar ishtiroki hali ham juda past. Bu rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha institusional mexanizmlarni (mentorlik, sponsorlik, majburiy kvotalar, ochiq tanlovlar) kuchaytirishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

3-jadval

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlarining 2025-yil 1-yanvardagi holati tahlili [14].

T/r	Ko'rsatkich	2025-yil reja	2025-yil 1 yanvar holati	Erishilgan daraja	Farq
1.	Siyosiy partiyalarda xotin-qizlar ulushi	49%	49%	100%	to'liq bajarilgan
2.	Siyosiy partiyalar rahbarlik lavozimlarida ulushi	41%	41%	100%	to'liq bajarilgan
3.	Vazir va vazirga teng lavozimlarda ayollar ulushi	10 nafar	7,7%	~77%	-2,3 nafar / ortda
4.	Mahalliy hokimlar orasida ayollar ulushi	10 nafar	2,4%	24%	-7,6 nafar / jiddiy ortda
5.	Boshqaruv lavozimlarida ayollar ulushi	28%	30,1%	107%	reja ortig'i bilan bajarilgan

6.	Sudyalar orasida ayollar ulushi	20%	14,6%	73%	-5,4 f. p. / ortda
7.	Yetakchi xotin-qizlarni tayyorlash dasturlari soni	1 ta	2 ta	200%	reja ortig'i bilan bajarilgan
8.	Davlat boshqaruv akademiyasida rahbarlik ko'nikmalarini oshirgan ayollar ulushi	9%	56%	622%	reja ortig'i bilan bajarilgan
9.	Chet el elchilari orasida ayollar ulushi	2 nafar	0	0%	to'liq bajarilmagan

O'zbekistonda gender tenglik strategiyasining ayrim yo'nalishlari bo'yicha 2025 yilgacha rejaga to'liq erishilmaganligining asosiy sabablari institusional va madaniy to'siqlarning o'zaro ta'sirida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Sosiologik nuqtai nazardan, yuqori va siyosiy-hududiy lavozimlarda hali ham kuchli saqlanib kelayotgan patriarxal stereotiplar ayollarning vertikal karerasini to'sib turibdi. Shuningdek, rahbar ayollar kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmining to'g'ri shakllanmaganligi, monitoring va hisobot tizimining zaifligi, qaror qabul qilish darajasidagi gender sezgirlikning pastligi eng jiddiy sosiologik muammo hisoblanadi. Mazkur masalani hal etish uchun nafaqat kvotalar ko'paytirish, balki patriarxal normalarni o'zgartirish, ayollarning boshqaruv salohiyatini rivojlantirish va qaror qabul qiluvchi elita orasida gender sezgirlikni oshirishga qaratilgan chuqur sosio-madaniy islohotlarni amalga oshirish bilan birga rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarining rivojlantirish klasterini ishlab chiqishni taqozo etadi.

XULOSA

Gender tengligiga erishishning eng samarali yo'li siyosiy partiyalar va davlat idoralarida ayollar uchun kvotalarni qat'iy qo'llash, nomzodlar tanlovida ularga ustunlik berish va zaxira tizimining ishlab chiqishidir. Rahbar ayollarni tayyorlash bo'yicha maxsus maktablar, shaxsiy ustozlik va mentorlik dasturlari ularning boshqaruv qobiliyatlarini tez o'stirishga katta yordam beradi. Rahbar ayollar uchun alohida o'quvlar, xorijiy tajriba almashinuvi va stipendiyalarni ko'paytirish esa eng yuqori o'sishni ta'minlaydi. Ish bilan oila o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun moslashuvchan ish jadvali va farovonlik dasturlarining joriy etilishi ayollarning ishga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini sosiologik nuqtai nazardan klasterlashtirish gender sosiologiyasi, feminist liderlik nazariyasi va tashkiliy psixologiyaning eng yangi tadqiqotlariga tayanadigan muhim amaliy-metodologik vosita hisoblanadi. Rahbar ayollarning mehnat faoliyati har kuni, har qadamda yangidan-yangi burilishlar, tunnellar va to'siqlarga to'la murakkab labirintdir. Bu labirintda unga gender stereotiplari, o'ziga ishonchsizlik (imposter sindromi), hamma narsani mukammal qilishga intilish (perfeksionizm) va ish bilan oila o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intilish kabi omillar muhim hisoblanadi. Shuning uchun klasterli yondashuv nafaqat individual o'zini rivojlantirishni, balki tuzilmaviy va madaniy to'siqlarni hisobga olgan holda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon beradi (4- javdal).

4- javdal

Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarining rivojlantirish klasteri *

Klaster nomi (Cluster Name)	Kompetensiyalar (Competencies)	O'zlashtirishga to'siq bo'ladigan sosiologik omillar (Sociological Barriers)	Kompetensiyalarni rivojlantirish uchun kerak bo'lgan chora-tadbirlar (Development Interventions)
--------------------------------	-----------------------------------	--	---

Kognitiv va Ma'lumotni boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> - Ma'lumotni tushunish - Ma'lumotni tahlil qilish - Umumiy axborot olish - Tashkilot missiyasini tushunish 	<ul style="list-style-type: none"> - Gender stereotiplari - O'ziga ishonchsizlik - Ma'lumot manbalaridagi gender qarashlardagi biryoqlamalik - Qaror qabul qilishdagi haddan tashqari ehtiyotkorlik va xavfdan qochish 	<ul style="list-style-type: none"> - Strategik fikrlash va analitika bo'yicha maxsus treninglar (SWOT, PESTLE, Scenario Planning) - Case study va biznes-simulyasiyalar - Mentorlik dasturlari - Ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish simulyatorlari
Vazifa va Tashkiliy boshqaruv	<ul style="list-style-type: none"> - Topshiriqlarni bajarish - Ish-yukni tizimlashtirish - Qaror qabul qilish - Tashkilotni boshqarish - Tashkilotni rivojlantirish - Tashkilotni yo'naltirish 	<ul style="list-style-type: none"> - «Perfeksionizm» («hamma narsani o'zi qilish» sindromi) - Ish-hayot balansining yo'qligi - Patriarxal tashkiliy madaniyat va «ayol rahbar samarador emas» stereotipi 	<ul style="list-style-type: none"> - Vaqtni boshqarish va ustuvorliklarni belgilash bo'yicha kouching - O'zgarishlarni boshqarish va tashkiliy rivojlanish treninglari - Ish va hayot muvozanati siyosatini korporativ darajada qo'llab-quvvatlash
Xodimlarni boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> - Xodimlarga yordam berish - Hamkasblarni boshqarish - Hamkasblarni rivojlantirish - Jamoani shakllantirish - Jamoani boshqarish 	<ul style="list-style-type: none"> - «Yumshoq» rahbarlik stereotipi (avtoritetni saqlash qiyin) - Emosional yukning ortiqchaligi (emotional labor) - Jamoadagi gender tengsizligi va qarshilik - «Ayol rahbar — faqat g'amxo'r, lekin qattiq emas» stereotipi 	<ul style="list-style-type: none"> - Emosional intellekt (EQ) va situasion liderlik ko'nikmalari bo'yicha treninglar - Kouching, ish faoliyatini boshqarish ko'nikmalari - Jamoa rivojlantirish dasturlari - «Qattiq va yumshoq» liderlik uslublarini muvofiqlashtirish mashg'ulotlari
Ijtimoiy-munosabatlarni boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> - Muloqotni ko'llab quvvatlash - Faol eshitish - Jamoada ishlash - Xizmatga moslashish - Maslahat berish - O'zaro munosabatni hosil qilish - Aloqalarni o'rnatish 	<ul style="list-style-type: none"> - Networkingda gender to'siqlari («boys club») - Double bind (qattiq bo'lsa — agressiv, yumshoq bo'lsa — zaif) - Mentor va sponsor etishmasligi - Ichki tashkiliy siyosat va norasmiy tarmoqlardagi to'siqlar 	<ul style="list-style-type: none"> - Professional tarmoqlarni yaratish (networking), ta'sir o'tkazish (influence) va muzokara olib borish (negotiation) bo'yicha maxsus treninglar - Rasmiy mentorlik dasturlarini yaratish - Nizolarni boshqarish va konstruktiv muzokaralar mashg'ulotlari

Shaxsiy-samaradorlikni boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> - Hurmat ko'rsatish - Moslashish - Ishonchlikni isbotlash - Stressni boshqarish - O'z-o'zini rivojlantirish - Maqsadga erishish 	<ul style="list-style-type: none"> - Ish va oila yukining nomaqbul taqsimlanishi - Stress, burnout va emotional exhaustion (ayollarda yuqoriroq) - O'ziga ishonchsizlik va «imposter syndrome» - «Ideal ona + ideal rahbar» stereotipi va ijtimoiy bosim 	<ul style="list-style-type: none"> - stress-menejment va self-menejment treninglari - Executive coaching va karera-oila balansi bo'yicha individual kouching - O'zini rivojlantirish dasturlari (self-leadership) - Korporativ darajada gender tenglik siyosati, moslashuvchan ish rejimi va farovonlik dasturlarini joriy etish
--	--	--	--

* Ushbu rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalari rivojlantirish klasterlari Women's Leadership Literature (Eagly & Carli, 2007; Hoyt & Murphy, 2016), Glass Cliff va Double Bind nazariyalari, Social Role Theory hamda Gender Role Congruity Theory ga tayangan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Har bir klasterdagi sosiologik to'vsiqlar empirik tadqiqotlarda tasdiqlangan bo'lib, rivojlantirish chora-tadbirlari esa ilmiy jihatdan asoslangan yetakchi leadership development amaliyotlariga muvofiq shakllantirilgan

Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini faqat individual xususiyatlar sifatida emas, balki ijtimoiy-gender muhiti, madaniy stereotiplar va tashkiliy strukturalar ta'sirida shakllanadigan kompleks ijtimoiy fenomen sifatida o'rganish imkonini beradi. 4-jadvalda 35 ta asosiy kompetensiyani 5 ta klasterga (kognitiv-ma'lumot, vazifa-tashkiliy, xodimlarni boshqarish, ijtimoiy-munosabatlar va shaxsiy-samaradorlik) tizimli ravishda guruhlash orqali gender sosiologiyasi, feminist liderlik nazariyasi va tashkiliy psixologiyaning zamonaviy yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali modelini taklif etadi.

Konseptual va metodologik asos sifatida rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarining rivojlantirish klasteri rahbarlik kompetensiyalarini ijtimoiy muhit, gender stereotiplari, patriarxal madaniyat va emosional mehnat yuki kabi sosiologik omillar kontekstida tahlil qilishga imkon yaratadi. Empirik tadqiqot instrumenti sifatida anketa savollari, intervyu yo'riqnomalari va kompetensiyalarni o'lchash indekslarini ishlab chiqish uchun konseptual ramka vazifasini bajaradi. U orqali ayol rahbarlarning real holatini sosiologik o'lchovlar bilan baholash mumkin. Yuqoridagi rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarining rivojlantirish klasteri treninglar, kouching dasturlari, mentorlik tizimlarini samarali joriy etishda, sohalar va tarmoqlar kesimida ayol rahbarlarning boshqaruv salohiyatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini sosiologik nuqtai nazardan tizimli o'rganish, gender barerlarini aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarining rivojlantirish klasterining hayotiy tatbiq etilishi ayol rahbarlarning professional o'sishini qo'llab-quvvatlash, tashkilotlar samaradorligini oshirish va jamiyatda gender tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Lara, S. The impact of Changes in Labor Market Conditions on Women Hired into Leadership Roles [Электронный ресурс] / S. Lara, M. Baird // LinkedIn Economic Graph Research Institute. – 2024. – Режим доступа: (внутренний отчет LinkedIn).
2. “O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar: fakt va raqamlar” statistik to'plami. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2024. – 82 b. – URL: gender.stat.uz (murojaat qilingan sana: 14.05.2026).

3. OECD Public Governance Reviews: Uzbekistan. Public Administration Effectiveness and Modernisation in Uzbekistan [Elektronniy resurs]. – Paris: OECD Publishing, 2024. – Rejim dostupa: OECD (data obrasheniya: 12.05.2026).
4. Women in Parliament [Elektronniy resurs] // The World Bank. Gender Data Portal. – 2025. – Rejim dostupa: https://genderdata.worldbank.org/en/indicator/sg-gen-parlzs?view=trend&geos=WLD_UZB#data-table-section (data obrasheniya: 12.05. 2026).
5. Equal Future Eurasia. (2025). Women's Representation in Politics and Public Administration: Uzbekistan [Elektronniy resurs]. Rejim dostupa: <https://www.equalfuture-eurasia.org/womens-representation-in-politics-and-public-administration/uzbekistan> (data obrasheniya: 14.05.2026).
6. OECD Public Governance Reviews: Uzbekistan. Public Administration Effectiveness and Modernisation in Uzbekistan [Elektronniy resurs]. – Paris: OECD Publishing, 2024. – Rejim dostupa: OECD (data obrasheniya: 12.05.2026).
7. “O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar: fakt va raqamlar” statistik to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2024. – 82 b. – URL: gender.stat.uz (murojaat qilingan sana: 14.05.2026).
8. Inglehart R., Norris P. Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — P. 34–36.
9. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash – jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). – Murojaat qilingan sana: 14.05.2026.
10. McKinsey & Company. Diversity wins: How inclusion matters. – [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: <https://www.mckinsey.com/featured-insights/diversity-and-inclusion/diversity-wins-how-inclusion-matters> (data obrasheniya: 15.05.2026); American Psychological Association (APA). Women leaders make work better. Here’s the science behind how to promote them. – 2023. – [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: <https://www.apa.org/topics/women-girls/female-leaders-make-work-better> (data obrasheniya: 15.05.2026).
11. “O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar: fakt va raqamlar” statistik to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2024. – 83 b. – URL: gender.stat.uz (murojaat qilingan sana: 14.05.2026).
12. Xalikulova X. Yu. Rahbarlik va genderni qayta belgilash: Zamonaviy O‘zbekistonda “Ayol rahbar” va “Zamonaviy ayol” tushunchalari // International Journal Of History And Political Sciences. – 2025. – Vol. 05, № 09. – S. 83–85. – DOI: 10.37547/ijhps/Volume05Issue09-19.
13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28 maydagi SQ-297-IV-sonli qaroriga
14. 3-ilova. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari // LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs /5466673> (murojaat qilingan sana: 14.05.2026).
15. “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlarining holati” // Gender statistika portali. – URL: gender.stat.uz (murojaat qilingan sana: 14.05.2026).

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000